




**QASHQADARYO
VILOYATINING
CHAKANA SAVDO
TOVAR
AYLANMASI
ULUSHI**



Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2 926,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 5,5 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 150,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,3 m.), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 2 775,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 102,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 286,0 mlrd. so'mni (2019-yilning shu davriga nisbatan 2,2 % o'sdi) tashkil etdi.

**HUDUDLAR
KESIMIDA
CHAKANA
SAVDO
TOVAR
AYLANMASI
HAJMI
(mlrd. so'm)**






**CHAKANA
SAVDO
AYLANMASIDA
YIRIK
KORXONALAR,
KICHIK BIZNES
VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARI-
NING HAJMI
VA O'SISH
SUR'ATLARI**
(mlrd. so'm, foiz)

	Jami	%	Yirik korxonalar	%	Kichik Biznes va xususiy tadbirkorlik	%
Qashqadaryo viloyati	2 926,0	105,5	150,9	2,3 m.	2 775,1	102,4
<i>hududlar:</i>			-		-	
G'uzor	118,2	102,8	2,6	2,4 m.	115,6	101,5
Dehqonobod	143,2	104,7	1,2	2,5 m.	142,0	104,1
Qamashi	212,0	103,0	2,5	10,9 m.	209,5	101,8
Qarshi	123,7	103,1	1,8	4,0 m.	121,9	102,0
Koson	285,6	102,1	1,7	16,4 m.	283,9	101,5
Kitob	204,3	102,6	2,2	8,2 m.	202,1	101,6
Mirishkor	114,2	99,4	1,0	7,3 m.	113,2	98,6
Muborak	92,2	102,4	2,4	155,6	89,8	101,4
Nishon	109,4	102,4	1,4	4,6 m.	108,0	101,4
Kasbi	119,9	105,6	1,6	4,1 m.	118,3	104,5
Chiroqchi	293,5	103,6	3,5	5,2 m.	290,0	102,6
Shahrisabz	112,8	99,5	10,7	58,4	102,1	107,4
Yakkabog'	165,0	104,5	5,1	18,9 m.	160,1	101,5
Qarshi sh.	669,4	114,6	110,2	2,8 m.	559,2	102,7
Shahrisabz sh.	162,5	106,2	3,0	4,6 m.	159,4	104,6

2019-yilning shu davriga nisbatan viloyatning Mirishkor va Shahrisabz tumanlaridan tashqari qolgan barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Qarshi shahri, Shahrisabz shahri, Yakkabog', Kasbi va Dehqonobod tumanlarida qayd etildi.

**CHAKANA
SAVDO
TOVAR
AYLANMASI**
(o'sish sur'atlari, %)






**CHAKANA
SAVDO
TOVAR
AYLANMASI
TARKIBI**
(hajmi)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 2019-yilning mos davriga nisbatan 2,3 m. ga o'sdi va 150,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 5,2 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 2 775,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 2,5 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 94,8 % ga teng keldi.

**CHAKANA SAVDO
AYLANMASIDA
YIRIK
KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA
XUSUSIY
TADBIRKORLIK-
NING HUDUDLAR
KESIMIDA ULUSHI**
(foizda)




 Yirik korxonalar
 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Koson (99,4 %), Dehqonobod (99,2 %), Mirishkor (99,1 %), Kitob (98,9 %) va Qamashi (98,8 %) tumanlar yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 5,2 % ni tashkil etib, eng katta ulush Qarshi shahrida (16,5 %), Shahrisabz (9,5 %) va Yakkabog' tumanlarida (3,0 %) kuzatildi.

CHAKANA
SAVDO
TOVAR
AYLANMASI
ULUSHI,
%



Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar-mart oylarida yirik korxonalarining tovar aylanmasi 150,9 mlrd. so'mni jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 5,2 %, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tovar aylanmasi 2 489,1 mlrd. so'mni ulushi 85,1 %, uyushmagan savdo tovar aylanmasi 286,0 mlrd. so'mni ulushi 9,7 % tashkil etdi.



**QASHQADARYO
VILOYATI
BO`YICHA AHOLI
JON BOSHIGA
NISBATAN
CHAKANA
SAVDO TOVAR
AYLANMASI
HAJMI
(ming so`m)
VA O`SISH
SUR`ATLARI
(foizda)**


2020-yil yanvar-mart oylarida o`rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 890,0 ming so`m (2019-yilning mos davri bilan solishtirganda 3,3 % ga o`sdi).

	Hajm, ming so`m	O`shish sur`ati,%
Qashqadaryo viloyati	890,0	103,3
<i>hududlar:</i>		
G`uzor	580,0	100,7
Dehqonobod	972,5	102,4
Qamashi	781,4	100,7
Qarshi	499,2	100,8
Koson	1 002,1	99,9
Kitob	773,3	100,8
Mirishkor	956,8	97,5
Muborak	1 062,7	100,4
Nishon	716,4	99,9
Kasbi	610,8	103,4
Chiroqchi	713,5	100,9
Shahrisabz	507,0	97,8
Yakkabog`	625,8	102,4
Qarshi sh.	2 428,6	112,8
Shahrisabz sh.	1 166,5	104,7

Ushbu ko`rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganida eng yuqorisi Qarshi shahri (2 428,6 ming so`m), Shahrisabz shahri (1 166,5 ming so`m) va Muborak (1 062,7 ming so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi. Buning sababi ushbu hududlarda yirik savdo va sanoat tashkilotlari joylashgan.



QASHQADRYO
VILOYATI
HUDUDLARI
KESIMIDA
UMUMIY
OVQATLANISH
KORXONALARI
SAVDO
AYLANMASI
O'SISH
SUR'ATLARI
(foizda)



2020-yilning yanvar-mart oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,6 % ni tashkil etib, 47,6 mlrd. so'mga yetdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 6,0 % kamayish kuzatildi. Bundan jami savdo aylanmasining 93,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

QASHQADRYO
VILOYATI
HUDUDLARI
KESIMIDA
UMUMIY
OVQATLANISH
KORXONALARI
SAVDO
AYLANMASI

	Hajm, mln. so'm	Viloyatdagi ulushi %
Qashqadaryo viloyati	47 572,7	100,0
<i>hududlar:</i>		
G'uzor	1 957,0	4,1
Dehqonobod	879,3	1,8
Qamashi	4 268,3	9,0
Qarshi	2 806,8	5,9
Koson	1 375,5	2,9
Kitob	4 875,9	10,2
Mirishkor	2 606,1	5,5
Muborak	3 504,3	7,4
Nishon	1 420,9	3,0
Kasbi	654,7	1,4
Chiroqchi	2 640,4	5,6
Shahrisabz	651,5	1,4
Yakkabog'	2 197,6	4,6
Qarshi sh.	15 300,8	32,1
Shahrisabz sh.	2 433,5	5,1



QASHQADARYO
VILOYATINING
ULGURJI
SAVDO
TOVAR
AYLANMASI

**Ulgurji savdo
tovar aylanmasi**

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi **544,3 mlrd.** so'mni tashkil qildi va 2019-yilning mos davriga nisbatan **25,0 %** ga kamayish kuzatildi.

Yirik korxonalar

Yirik korxonalar ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi **99,7 mlrd.** so'mni tashkil qildi va 2019-yilning mos davriga nisbatan **66,2 %** kamayish kuzatildi.

18,3 %

Kichik korxonalar

Savdo hajmi:
226,2 mlrd. so'm
O'sish sur'ati: **103,4 %**

41,6 %


Mikrofimlar

Savdo hajmi:
218,5 mlrd. so'm
O'sish sur'ati: **103,0 %**

40,1 %

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznesga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, 444,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 3,2 % ga o'sgan. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 81,7 % ni tashkil qilmoqda.

YIRIK
KORXONALAR,
KICHIK BIZNES-
NING ULGURJI
SAVDO TOVAR
AYLANMASIDAGI
ULUSHI, %






HUDUDDLAR KESIMIDA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (mlrd. so'm) VA O'TGAN YILNING SHU DAVRIGA NISBATAN O'SISH SUR'ATLARI (foizda)		Jami	%	Yirik korxonalar	%	Kichik biznes	%
	Qashqadaryo viloyati		544,3	75,0	99,7	33,8	444,7
<i>hududlar:</i>		-		-		-	
G'uzor		3,7	122,1	0,6	-	3,1	103,1
Dehqonobod		1,3	103,1		-	1,3	103,1
Qamashi		11,3	56,7	4,2	32,1	7,1	103,2
Qarshi		33,8	92,6	8,1	69,9	25,8	103,1
Koson		41,8	164,0	15,5	23,7 m.	26,3	103,1
Kitob		26,5	103,1		-	26,5	103,1
Mirishkor		24,0	94,1	16,2	90,3	7,8	103,2
Muborak		11,3	69,8	7,2	59,0	4,1	103,0
Nishon		30,8	70,7	5,1	27,4	25,7	103,3
Kasbi		23,3	83,9	16,4	77,8	6,9	103,0
Chiroqchi		13,5	102,9		-	13,5	103,0
Shahrisabz		5,9	103,2	0,1	100,8	5,9	103,3
Yakkabog'		12,3	103,8	0,1	-	12,2	103,1
Qarshi sh.		272,5	62,0	26,0	13,0	246,5	103,2
Shahrisabz sh.		32,2	103,4	0,2	159,5	32,0	103,2

2019-yilning mos davriga nisbatan ulgurji savdo tovar aylanmasi yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Qarshi sh. (159,5 %), Shahrisabz (100,0 %) va Koson (23,7 m.) tumanlarida kuzatildi.



**HUDUDLAR
KESIMIDA
ULGURJI
SAVDO TOVAR
AYLANMASI-
NING ULUSHI, %**

Ko'rsatkichlarni hududlar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, viloyat ulgurji savdo aylanmasida eng yuqori ulush Qarshi shahar 50,0 %, Koson 7,7 %, Qarshi 6,2 %, Shahrisabz sh 5,8 % tumanlarida qayd etildi.



Ulgurji tovar aylanmasida 2020-yilning yanvar-mart oylarida eng kam ulush Dehqonobod (0,2 %), G'uzor (0,7 %), Shahrisabz (1,1 %) va Qamashi tumanlarida (2,1 %) qayd etildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi
bo'limi
Tel.:75-221-44-28**